



DIALEKTAL USLUB VA DIALEKTIZM TUSHUNCHALARI

Aminova Feruza Anvar qizi,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243822>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dialektizm va dialektal uslub tushunchalari, ularning o‘zaro farqlari va o‘xshashliklari tahlil qilingan. Dialektizm – adabiy tilga kirmagan, faqat muayyan hudud yoki shevada ishlatiladigan so‘z va grammatik shakllar bo‘lsa, dialektal uslub – badiiy nutqda shevaga xos til vositalarining tizimli qo‘llanilishi sifatida izohlanadi. Dialektizmlarning lingvistik jihatdan tasnifi va badiiy asarlardagi roli ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, dialektal uslubning qahramon xarakterini ochish, milliy kolorit yaratish va realistik tasvirni kuchaytirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Dialektizmlar, uslub, so‘zlashuv uslubi, dialektal uslub, badiiy adabiyot, mahalliy kolorit, sheva, lahja.

Arabcha so‘z bo‘lib, “tartib, usul, yo‘sin, tarz” degan manolarni bildiradi. Poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzda shakliy qurilishini belgilovchi umumiy prinsip. U antropologik, ya‘ni ijodkor shaxsi bilan bog‘liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Uslubda namoyon bo‘luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida [badiiy asar tuzilishi, poetikasi] birdek ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni u badiiy shaklning unsuri emas, unga unga xos xususiyatdir. J.Byuffonning ilmiy muomalada “Uslub – odam” degan fikri ommalashgan. Asar o‘zida ijodkor shaxsini ifodalalar ekan, buni uslubda namoyon etadi. Misol uchun, A.Qahhorga xos jumla tuzish, A.Qahhorga xos rivoya, A.Qahhorga xos detallar funkstionalligi, A.Qahhorga xos syujet qurilishi deyilishining boisi shundaki, bularning bari A.Qahhor uslubi bilan izohlanadi.

Uslub faqat ijod jarayoni, konkret ijodkor bilangina emas, ma‘lum darajada adabiy jarayon bilan ham bog‘liq kategoriya. Chunki ijodkor faoliyati muayyan bir davrda, adabiy estetik prinsiplari jihatidan yaqin bo‘lgan guruhlar ichida kechadi, demak, unga xos badiiy asar shaklini belgilovchi prinsiplar bilan boshqa ijodkorlar tayangan prinsiplarda mushtarak jihatlar kuzatilishi tabiiy. Uslubning vazifalari Ijod jarayonida uslub san'atkorni voqelikni yaxlit idrok etish, hayot materialini yaxlit badiiy sistemaga [kompozitsiya] aylantirishga yo‘naltiradi. Adabiy jarayonga nisbatan olinsa, uslub badiiyatning rivojlanish o‘zanidagi ijodkorni adabiy an'ana bilan bog‘laydi va shu tariqa, bir tomondan, o‘zida adabiy-badiiy an'anani tashuvchi, ikkinchi tomondan, uni yangilovchi hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy asarning keyingi hayoti, ijtimoiy mavjudligi [ontologiyasi] ham uslub bilan belgilanadi.

O‘zbek adabiyotida dialektal uslub degan tushuncha yo‘q, lekin bu asarlar orqali shu tushunchani kiritishga hojat bor. Bu holat asar muallifining shevaga xos



ifoda tanlash, obrazlarning tabiiy va hayotiy chiqishini ta'minlash hamda o'quvchida shevalarimizga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga molikdir. Boshqacha aytganda, dialektal uslub orqali milliy va hududiy mentalitet, va mahalliy madaniyat aks ettiriladi. Dialektal uslub – adabiy asarlarda, xalq og'zaki ijodida yoki badiiy nutqda mintaqaviy shevalarga xos so'z va grammatik shakllardan foydalanish uslubi. Bu uslub odatda quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

- Badiiy tasvir vositasi sifatida – qahramonlarning nutqini jonlantirish, mahalliy kolorit yaratish. Masalan, Cho'lpon, Oybek, O'tkir Hoshimov asarlarida shunday uslub uchraydi.

- Haqiqiy hayotiylikni ifodalash – qahramonlarning mintaqaviy kelib chiqishini ochib berish uchun.

- Folklor va xalqona uslubni aks ettirish – xalq qo'shiqlari, maqollar va rivoyatlarda uchraydi.

Dialektizm va dialektal uslub adabiyot va tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Ular milliy tilning boyligini ko'rsatadi, badiiy asarlarga tabiiylik va milliy xususiyat bag'ishlaydi. Ba'zi yozuvchilar dialektal unsurlarni o'z asarlarida ko'proq ishlatib, mahalliy shevalarning adabiyotga ta'sirini kuchaytiradi.

Dialektizmlar B. Fayzullaev tomonidan 70-yillarda maxsus o'rganilgan, bu ishdan boshqa sanoqli maqolalargina yozilgan. Shunda ham dialektizmlargina o'rganilgan. Muayyan sheva asosida yozilgan asarlar tili to'g'risida esa hozirga qadar tadqiqotlar olib borilmagan. Dialektizmlar — adabiy tildagi dialektlarning o'ziga xos hududiy unsurlari. Dialektizmlarlar tilshunoslikning barcha sohalari [fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va boshqalar]ga taalluqli. Badiiy ijodda dialektizmlarlar narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg'u berish maqsadida qo'llaniladi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq, bunday qo'llash tufayli dialektizmlarlar adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi. Dialektizmlarlarni qo'llash uslublararo ham cheklangan. Badiiy uslubda ancha keng, publitsistik uslubda qisman qo'llangani holda ilmiy, rasmiy uslublarda deyarli uchramaydi. Ba'zi so'zlar adabiy til va dialektda qullangani holda boshqa dialektda boshqa ma'noni ifodalaydi. Mas, „shoti“, „tovoq“ Farg'ona til shevalarida „narvon“, „lagan“ni bildirsa, adabiy tilda „arava shotisi“ „kosaga o'xshash idish“ni anglatadi. Xorazm shevasiga xos „g'o'ch“ so'zi — „mard“, „botir“; „nishatamiz“ — „nima qilamiz“ degan ma'noni bildiradi. Dialektizmlarlardan o'rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta'sir-chanligini oshiradi.



Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarining aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm turlariga ega bo‘ladi [1:76]. Dialekt so‘zlar keng o‘quvchi uchun mo‘ljallangan yozma matnlarda ishlatilganda badiiy asar tilida alohida rol o‘ynaydigan dialektizmlarga aylanadi. Muallif asarida ular mahalliy xususiyatlarni, shuningdek, ekzotizmlarni qayta yaratadilar va tarixiylik kabi voqelikni real tasvirlash vositalaridan biriga aylanadi. Dialektizmlar muallif nutqidan ko‘ra dialoglarda ko‘proq qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ko‘lami bir yoki bir nechta hududda chegaralangan so‘zlardan foydalanish zaruriyat va badiiy maqsadga ko‘ra belgilanishi kerak. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarining aks etishi dialektizmlar deyiladi [4:531].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, dialektizm va dialektal uslub o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular turli tushunchalardir.

T/R	Dialektizmlar	Dialektal uslub
1	Adabiy tilga mansub bo‘lmagan, faqat ma‘lum bir hudud yoki shevada ishlatiladigan so‘z va til unsurlari.	Shevaga xos leksik, grammatik, morfologik vositalarning badiiy asar yoki og‘zaki nutqda qo‘llanish uslubi.
2	Dialektizm bu alohida so‘z yoki ibora, grammatik shakl.	Dialektal uslub esa shevalarga xos so‘zlar, iboralar, talaffuz va grammatik shakllarning badiiy nutqda tizimli qo‘llanilishi.
3	Dialektizmlar tilshunoslikda hududiy leksik birliklar sifatida o‘rganiladi. Demak, dialektizm lingvistik hodisa.	Dialektal uslub esa adabiyotshunoslikda matn tahlilida qo‘llaniladi. Dialektal uslub - uslubiy, adabiyotshunoslikka xos hodisa.
4	Dialektizm har qanday nutqda uchraydi.	Dialektal uslub esa badiiy asarlarda, dramatik asarlarda yoki xalq og‘zaki ijodida uchraydi.

Garchi dialektizm va dialektal uslub turli tushunchalar bo‘lsa ham, ular quyidagi jihatlarda o‘xshashdir:

1. Shevalar bilan bog‘liqligi - Ikkalasi ham shevalar va lahjalarga xos bo‘lib, adabiy tildan farqlanadi.
2. Ikkisi ham adabiy til normalaridan chetga chiqadigan til unsurlarini o‘z ichiga oladi.
3. Dialektizmlar hamda dialektal uslub ko‘pincha badiiy asarlarda qahramon nutqini tabiiy va jonli yaratish uchun ishlatiladi.
4. Har ikkisi ham qahramonlarning qaysi hududdan ekanligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



5. Har ikkisi ham xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, jonli so‘zlashuv nutqida uchraydi. Ammo yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek tilida ham, o‘zbek adabiyotida ham dialektal uslub degan tushuncha yo‘qligi bois, og‘zaki nutqdagi bu unsurlar so‘zlashuv uslubi tarkibiga kiradi deb qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent: "Navro‘z" 2016-76
2. Boltaboev H. Nasr va uslub. –Toshkent: Fan, 1992.
3. Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. – M., 1963. – 259 s.
4. Berdiyeva N. M.Muhammad Do‘st asarlarida dialektizmlar.Scientific Journal Impact Factor [SJIF] 2021: 5.723. 531- b
5. Tojiyev Yo., Hasanova N. va b. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari amaliyoti. – Toshkent, 1994.
6. Solijonov Y. Nutq va uslub. Adabiy-tanqidiy nashr. –Toshkent: «Cho‘lpon», 2002. –B. 32